



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 242 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
Inoyatova Zulfiya Xamdamovna	
Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi	
Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish	203
Kayumov Oybek Achilovich	
Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna	
Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish	214
Rayimova Shahlo Sobirjon qizi	
STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari	217
Toshev Elbek Choriyevich	
Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
Usmanov Botir Allaberdievich	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
Xalilova Dilnoza Furkatovna	
Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni	230
Xodiyeva Dilrabo Pirimovna	
Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education	233
Yunusova Nodira Akhmadjanovna	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	237
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY KO'NIKMALAR VA KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi

UBS, boshlang'ich ta'lim va sport faoliyati o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada shaxsning ijtimoiylashuvi muammosi, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning yoshga doir psixologik va pedagogik xususiyatlari, shuningdek ijtimoiylashuv mezonlari va uni amalga oshirish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, bolalar, tarbiyachi, ta'lim, tarbiya, ijtimoiylashuv, kompetentlik, shaxs rivoji, ijtimoiy ko'nikmalar, emotsional intellekt, kommunikativ ko'nikmalar, guruh ichidagi muloqot, pedagogik jarayon, ijtimoiy moslashuv, bolalar psixologiyasi, bolalar faoliyati.

Abstract: The article examines the issue of personality socialization, the age-related psychological and pedagogical characteristics of forming social competence in preschool children, and analyzes the criteria and ways of socialization.

Key words: preschool age, children, educator, education, upbringing, socialization, competence, personal development, social skills, emotional intelligence, communication skills, group interaction, pedagogical process, social adaptation, child psychology, children's activities.

Аннотация: В статье рассматривается проблема социализации личности, возрастные психологические и педагогические особенности формирования социальной компетентности у детей дошкольного возраста, а также анализируются критерии и пути социализации.

Ключевые слова: дошкольный возраст, дети, воспитатель, образование, воспитание, социализация, компетентность, развитие личности, социальные навыки, эмоциональный интеллект, коммуникативные навыки, взаимодействие в группе, педагогический процесс, социальная адаптация, психология детей, деятельность детей.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan faoliyat sub'ekti sifatida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mavjud guruhlarining muhiti tarbiyachi va bolalarning individualligini aks ettiradi va u o'ziga xos hamda individualdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanayotgan muhit ta'lim, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, rag'batlantiruvchi, tashkiliy, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Lekin eng muhimi, u bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini rivojlantirish uchun xizmat qilishi lozim.

Ijtimoiylashuvning komponentlari faoliyat, muloqot va o'z-o'zini anglashdan iborat. Bola faoliyatida shaxsiy sifatlarini namoyon qiladi, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va shaxsiy faolligini ko'rsatadi. Muloqot muhitida bolalar o'zi va kommunikatsiya jarayonidagi ishtirokchilarni chuqur tushunadi, o'zgalar bilan o'zaro ta'sirni va ularni idrok qilishni anglaydi. O'z-o'zini anglash natijasida "Men" konsepsiyasi rivojlanadi, ijtimoiy statusini egallaydi, ijtimoiy rolini o'zlashtiradi, ijtimoiy qarashlar shakllanadi, ma'naviy jihatdan tarbiyalanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish hamda sohada zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar belgilab berildi.

Ushbu hujjatlarda O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha barqaror rivojlantirish konsepsiyasini ilgari surish, davlat va nodavlat sektorlaridagi ta'lim xizmatlari integratsiyasini mustahkamlash, zamonaviy pedagogik va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish asosiy yo'nalish sifatida belgilandi.



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son¹ Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli² qarori, shuningdek, 2024–2026-yillarda qabul qilingan mazkur normativ hujjatlar asosida bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish, shuningdek, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirish masalasi psixologik va pedagogik tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Ijtimoiylashuv jarayoni shaxs rivojining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. D.M. Bolduin 1913-yilda shaxsning ijtimoiy rivojlanishi jamiyat bilan o'zaro aloqadorlikda shakllanishini asoslab, ijtimoiy tajriba va muhitning ta'sirini alohida ta'kidlaydi. Uning qarashlarida bolaning ijtimoiy xulqi va axloqiy sifatleri muhit bilan uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Shuningdek, J. Piaje 2003-yilda bolaning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda ijtimoiylashuv jarayonini ham izohlaydi. Unga ko'ra, bola atrof-muhit bilan faol o'zaro ta'sirda bo'lish orqali bilim va tajriba orttiradi, bu esa uning ijtimoiy kompetentligining shakllanishiga olib keladi. Piaje nazariyasida ijtimoiy muhit va kognitiv rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan.

O'zbek olimlaridan X.S. Akramova 2016-yilda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmuni va yo'nalishlarini tahlil qilib, ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligi muhim ekanligini ta'kidlaydi. N. Baxriyeva 2020-yilda esa bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida musiqa mashg'ulotlarining ahamiyatini ochib berib, emotsional tajriba orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish mumkinligini asoslaydi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda maktabgacha ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida 2022-yilda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilangan.

G. Tohirova tadqiqotlarida esa maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuviga oid nazariy yondashuvlar tizimli tahlil qilinib, ijtimoiy muhit, muloqot va faoliyatning o'zaro uyg'unligi ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim sharti ekanligi ko'rsatib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning yoshga xos psixologik va pedagogik xususiyatlari hamda maktabgacha ta'lim tizimi sifati va samaradorligini ta'minlash omillari xususida so'z yuritiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi rivojlantirilayotgan ta'lim muhiti jarayonida bolalarning ijtimoiy kompetentligi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U jamiyat rivojining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim bosqichida sifatli ta'lim, samarali tarbiya va to'g'ri yo'naltirilgan ijtimoiylashuv mahsulidir. Shuning uchun ham davlatimiz rahbarining g'oyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini talab darajasiga keltirish, ularning oliy o'quv yurtlari tarkibida ham o'z faoliyatini yuritayotganligi, tarbiyachilarga ilmiy-uslubiy yordam berilishi sifatli ta'limning ham amaliy, ham nazariy jihatdan samarali yo'lga qo'yilishiga zamin bo'ladi.

Maktabgacha ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligi ham biz tadqiq etayotgan muammoning dolzarbligini belgilaydi ^[1].

Agar bolalarning ta'lim-tarbiya olishga kirishgan dastlabki pallasi sifatli tashkil etilib, uzluksizlik kasb etmasa yoki bolalar nazariy hamda hayotiy bilim va ko'nikmalarni egallay olmasa, shaxs sifatida yetarlicha erkin fikr yuritilmaydi. Tabiiyki, ijtimoiy kompetentlik darajasi ham past bo'ladi.

Kompetentlik tushunchasi esa shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatleri va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-4646908>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

Rivojlangan mamlakatlarda davlat ijtimoiy kompetentlik darajasining yaxlit jamiyat, ijtimoiy guruh miqyosida va individual tarzda yuksalishidan manfaatdorligi e'tirof etiladi. Chunki ijtimoiy kompetentligi yuksak shaxs yolg'on gapirmaydi, o'rnatilgan tartib va qoidalarni buzmaydi, madaniyatsizlik yoki axloqsizlikdan o'zini tiyadi, Vataniga xiyonat qilmaydi, befarq bo'lmaydi, birovning yetovida yurmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish, bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishning muhimligi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"da ko'rsatib o'tilgan. Davlat standartida rivojlantiruvchi muhit mazmuni sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazma-li-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlarga: milliy va mintaqaviy an'analar, tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi, muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozimligi belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilanganidek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat. Mazkur hujjatda maktabgacha yoshdagi (6–7 yosh) bolaning umumiy muhim to'rtta kompetensiyasidan biri sifatida ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish qobiliyati sifatida ko'rsatib o'tilgan [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy kompetensiyalari turli vaziyatlarda, faoliyatlarda, muloqot jarayonida shakllanib boradi. Muloqot bolalarda shaxs sifatida o'zini bilish va anglash uchun xizmat qiladi, bilvosita boshqalarga munosabat va boshqalarning o'ziga bo'lgan munosabati orqali tahlil etish qobiliyati yuzaga keladi. Bolaning rivojlanishi turli ijtimoiy sharoitlarda turli guruhlar va tengdoshlari bilan muloqot (o'zaro ta'sir) bilan belgilanadi. Bola turli darajadagi ijtimoiy munosabatlarni idrok etish va tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bu borada tarbiyachi-pedagoglar bolalarda muloqot ko'nikmalarini o'rgatishlari shart emas. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar turli ko'nikma va malakalarni kattalarga taqlid qilish asosida egallab boradilar. Natijada bolalar o'rtasida ijtimoiy faol munosabatlar va ijtimoiy fazilatlar shakllanadi va bolalarning quyidagi xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi:

- tengdoshlariga yordam taklif qilish va ulardan yordam so'rash qobiliyati;
- hissiy sezgirlik, boshqalarga hamdardlik, muhtojlarga g'amxo'rlik qilish;
- boshqa shaxsning xususiyatlarini hisobga olish va qabul qilish;
- bag'rikenglik va tolerantlik;
- adekvat o'zini-o'zi hurmat qilish;
- o'ziga ishonch, o'z ahamiyatini anglash;
- turli darajadagi va turdagi muloqot qobiliyatlari hamda boshqa malakalarni egallash.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarning ijtimoiylashuvi pedagogik ta'sir asosida amalga oshadi, oila a'zolari va tarbiyachilar bolaning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyat jarayonida aka, ukasi, opasi va tengdoshlari bilan muloqot qilishlarini tashkil qiladi. Ijtimoiylashuv shaxsning madaniyat, kommunikatsiya ta'siri ostida shakllanish jarayonini ham anglatib, subyektlarning bir-biri bilan muloqotga kirishishini ta'minlaydi. Bu jarayon insonning butun hayoti davomida yuz beradi.

Z. Freyd bolaning rivojlanishidagi ayrim mexanizmlarga ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, "bolaning kamol topishi, shaxs bo'lib shakllanishida ota-onalar bilan bo'ladigan munosabatlar katta rol o'ynaydi" [3].

J. Piaje bola shaxsining rivojlanishida muhim davrlar bo'lishini asoslaydi, lekin bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishda ijtimoiy ta'sir muhim deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, "shaxsning bilish faoliyati kognitiv jarayonlar orqali yuz bergani uchun bolaning ijtimoiylashuvi jamiyat talablariga moslashadi, yangi tajribalar orqali muvozanatlashadi" [4].

Tadqiqotchi X. S. Akramova tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat masalasiga bag'ishlangan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, ota-onalar uchun maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari asosida davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, turli maktabga tayyorlov markazlarida bolalarni maktabga tayyorlash ishlari olib borilayotgani, maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi va dastlabki bilim olishi to'g'risidagi har bir oila va jamiyat bilishi zarur bo'lgan muhim tavsiyalar bayon etiladi.

Tadqiqotchi tomonidan tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyatga va atrof-muhitga oson moslasha olishlari, tengdoshlari bilan o'zaro muloqotga kirishishlari borasidagi vazifalari xususida so'z yuritiladi [5].



Yosh tadqiqotchi N. Baxriyeva ilmiy izlanishlarida bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida musiqa mashg'ulotining muhim o'rin tutishi xususida so'z yuritiladi. Uning fikricha, musiqa mashg'ulotlarida ma'lum qo'shiqni kuylash yoki tinglash jarayonida unda ifodalangan badiiy mazmun, hissiy holatlar muhitida yashash va uni idrok etish natijasida bola o'zining emotsional zaxirasini yaratadi hamda uning ko'magida o'zi va uni o'rab turgan atrofdagilarning hissiyotlarini yanada teran anglay boshlaydi. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish natijasida bolalarda:

- o'z emotsiyalari va tuyg'ularini bilish va boshqara olish malakalari;
- boshqalarning emotsiyalari va tuyg'ularini anglash;
- o'zi, yaqinlari, do'stlari, oila a'zolari va atrofdagilar bilan samarali muloqotga kirisha olish sifatleri shakllanib boradi.

Ijtimoiylashuvda muloqot faoliyati muhim o'rin tutadi va ushbu jarayonning sifatli kechishi emotsionallik bilan chambarchas bog'liq. Boshqa insonlar bilan muloqotga kirishishda o'ziga xos ifodali harakatlar, mimika, tovush ohangining o'zgarishi orqali fikr bildiriladi. Bunda gavda holati, jestlar, harakatlarning o'ziga xosligi mimikani boyitadi va emotsional holatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Musiqa mashg'ulotlari orqali bu sifat va xususiyatlarning barchasi bolalarda o'ziga xos ijodiy ko'rinishda, tizimli tarzda shakllantirib boriladi ^[6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ta'lim jarayonini tashkil etishning gumanistik tamoyillarini amalga oshirish va jamoa subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishni hisobga olgan holda turli yoshdagi guruhlarni shakllantirish bolaning shaxsiyatining ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishning muhim mezonlari quyidagilardan iborat:

- jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirish;
- bolaning kattalar bilan muloqoti va o'zaro munosabatini rivojlantirish va tengdoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash;
- o'z harakatlarining mustaqilligi, maqsadga muvofiqligi va o'zini o'zi boshqarishni shakllantirish;
- ijtimoiy va hissiy intellektni, hissiy sezgirlikni, empatiyani rivojlantirish;
- tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyatga tayyorlikni shakllantirish;
- o'z oilasiga, bolalar va kattalar jamoasiga hurmatli munosabat va daxldorlik tuyg'usini shakllantirish;
- mehnat va ijodning turli turlariga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- kundalik hayotda, jamiyatda va tabiatda xavfsiz xulq-atvor asoslarini shakllantirish.

O'zaro munosabat va o'zaro ta'sirlar orqali ijtimoiylashuv rivojlanadi va bolalarda "MEN" rivojlanadi. Natijada o'zini namoyon etish, o'z potensialini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy fikrlarini ifodalash, muammo yechimlarini hal etishda mustaqil qaror chiqarish va tashabbuskorlik shakllanadi. Bola shaxsining jamiyat me'yorlari va qadriyatlariga amal qilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
2. "Илк кадам" давлат ўқув дастури /такомиллаштирилган иккинчи нашр/. Тошкент-2022-й.
3. Болдуин Д.М. Духовное развитие с социологической и этической точки зрения. Исследование по социальной психологии. Москва-1913.
4. Пиаже Ж. Психология интеллекта. Питер-2003. – 192 с.
5. Акрамова Х.С. Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий-педагогик фаолият. Замонавий таълим / Современное образование. 2016-й., №4.
6. Бахриева Н. Мактабгача ёшдаги болаларни ижтимоий-ҳиссий ривожлантиришда музика машғулотларининг ўрни. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. (SI) II/2020-й.
7. Тохинова Г. Мактабгача ёшдаги болалар ижтимоийлашувига оид назариялар. Science and Innovation. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7158482>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.